References:

1. (2022) Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 31-avgust kuni “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyidagi tashrifi chog‘idagi nutqi [From the speech of President Sh.M. Mirziyoyev during his visit to the “Memorial of Repression Victims” Museum on August 31]. *Xalq so‘zi*. August 31.
2. O‘zbekiston Respublikasi davlat xavfsizlik xizmati arxivi [Archive of the State Security Service of the Republic of Uzbekistan (ASSSRU)]. File 24627, pages 18-19.
3. ASSSRU, File 24627, sheet 22.
4. ASSSRU, File 24627, pages 33-35.
5. Abdurashidkhanov, M. (2003) *Tanlangan asarlar* [Selected works]. Tashkent: Ma’naviyat.
6. Ubaydullayev, O‘. (2023) O‘zbekistonda milliy arboblarning qatag‘on qilinishi [Repression of national figures in Uzbekistan]. *Jamiyat va innovatsiyalar – Obshchestvo i innovacii. No* 9. Pp.128-143.
7. ASSSRU, File P-22939, sheet 101.
8. ASSSRU, File P-25915, sheet 68.
9. ASSSRU, Case P-24627, sheet 37.
10. ASSSRU, Case P-24627, sheet 42
11. ASSSRU, Case P- 24627, pages 48–50.
12. ASSSRU, Case P-24627, sheet 88.
13. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 89.
14. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 126.
15. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 127.
16. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 128.
17. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 139.
18. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 132.
19. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 134.
20. ASSSRU, Case P- 23503, sheet 136.
21. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 138.
22. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 142.
23. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 146.
24. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 148.
25. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 187.
26. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 183.
27. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 190.
28. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 188.

Muallif haqida ma’lumot:
UBAYDULLAYEV O‘ktamjon Qodirovich – tarix fanlari nomzodi, Andijon davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti. E-mail: uktamjon1969@gmail.com

UO‘K 069 (575.1):94

O‘ZBEKISTONDA MUZEYLAR FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI

F.X. Mirhakimova

Maqolada O‘zbekistonda muzeylar faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asoslar yoritilgan. Unda muzeylarning jamiyatdagi o‘rni, ularning madaniy merosni asrab-avaylash va targ‘ib etishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonuni, prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining me’yoriy-huquqiy hujjatlari asosida muzeylar faoliyatining huquqiy jihatlari ko‘rib chiqilgan hamda ularning huquq va majburiyatlari, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: davlat, uy-muzey, hujjat, qaror, madaniy meros, an’ana, adabiyot, san’at, siyosat, manba, arxiv hujjatlari.

В статье всесторонне анализируются правовые основы деятельности музеев в Республике Узбекистан. Раскрывается роль музеев в сохранении, защите и популяризации культурного наследия. На основе Закона «О музеях», указов и постановлений Президента, а также нормативно-правовых актов Кабинета Министров рассматриваются права и обязанности музеев, механизмы государственной поддержки и содержание проводимых в данной сфере реформ.

Ключевые слова: *музеи, правовое регулирование, культурное наследие, государственная политика, нормативно-правовые акты, музейная деятельность, государственная поддержка.*

Kirish

O‘zbekiston tarixining turli davrlarini ko‘rgazmali ravishda taqdim etishda muzeylar muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda O‘zbekistonda 1200 dan ortiq turli mazmundagi muzeylar mavjud. Ular orasida davlat va jamoat arboblari, yozuvchi, shoir, rassom, olim va mashhur san’at arboblarining memorial va uy-muzeylari alohida o‘rin tutadi. Memorial va uy-muzeylar madaniy meros sifatida O‘zbekiston tarixining ijtimoiy-madaniy jarayonlarini ma’lum bir shaxs taqdiri orqali yoritishga xizmat qiladi.

Memorial va uy-muzeylari faoliyatini tashkil etishda me’yoriy-huquqiy hujjatlar g‘oyatda muhim sanaladi. Bu hujjatlar ayni paytda mazkur muzeylar rivoji tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

O‘zbekistonda memorial va uy-muzeylari vujudga kelishi tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, ular ilk bor sovet davrida tashkil etildi. Sovet davrida muzey sohasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar tarkibida memorial va uy-muzeylarga aloqador ko‘plab masalalar qamrab olindi, shuningdek, ularning maxsus me’yoriy-huquqiy asoslari shakllantirildi.

Material va usullar

XX asrning 40-yillaridan boshlab shaxsga aloqador muzeylarni tashkil etish masalalariga hukumat tomonidan alohida e’tibor qaratildi. Masalan, O‘zbekiston hukumatining 1940-yil oktyabrdagi “Shoir Muqimiy uy-muzeyini tashkil etish haqida”gi 14-sonli qaroriga ko‘ra, 1941-yil 1-fevralda Muqimiy hujra-muzeyi tashkil etildi [1. B. 44]. O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1959-yil 20-yanvardagi “O‘zbek adabiyoti klassiklari adabiy merosini o‘rganish sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi 65-R-sonli qabul qilingan buyrug‘iga binoan Qo‘qon shahridagi Muqimiy xonasi negizida O‘z SSR Fanlar akademiyasi Adabiyot muzeyi filialini tashkil etish masalalari ko‘rilgan [2. B. 40].

Adabiyot namoyondalari Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadriddin Ayniy, Furqat**,** G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Sergey Borodin, Oybek, Sergey Yesenin, o‘zbek musiqa san’ati rivojiga munosib hissa qo‘sh-

gan kompozitorlar Muxtor Ashrafiy, Yunus Rajabiy, davlat arboblari Yo‘ldosh Oxunboboyev, Usmon Yusupov xotiralarini abadiylashtirish yo‘lida ularning uy-muzeylari tashkil etilishi haqida maxsus hujjatlar qabul qilindi.

Bunga misol tariqasida O‘zbekiston hukumatining quyidagi qarorlarini keltirish mumkin. 1956-yilda “Hamza Hakimzoda Niyoziyning xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida” qabul qilingan qaror [3. B. 19], 1964-yil 16-iyundagi Samarqand shahrida “Sadriddin Ayniy yodgorlik uy-muzeyini tashkil etish haqida”gi 361-sonli qaror [4. B. 43], 1964-yil 17-oktyabrdagi “Marg‘ilon shahrida Yo‘ldosh Oxunboboyev memorial muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaror [5. B. 238], 1981-yil 16-iyuldagi “G‘afur G‘ulom uy-muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaror [6. B. 29], 1987-yil 6-maydagi “O‘zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhorning uy-muzeyini tashkil etish haqida”gi 191-qaror [7. B. 174], 1978-yil 23-avgustdagi “Toshkent shahrida Sergey Borodin uy-muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaror [8. B. 109], 1980-yil 23-fevraldagi “O‘zbekiston SSR xalq yozuvchisi Oybekning uy-muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”-gi 148-sonli qaror [9. B. 103], 1988-yil 21-iyundagi Toshkentda “Sergey Yesenin muzeyini tashkil etish haqida”gi 01-10/175-sonli qaror [10. B. 133] qabul qilinishi soha rivojida muhim rol o‘ynadi.

Shuningdek, davlat arboblari va o‘zbek musiqa san’ati rivojiga munosib hissa qo‘shgan bastakorlarning ham memorial va uy-muzeylarini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Masalan, 1976-yil 22-iyuldagi “Muxtor Ashrafiy xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida”gi 440-sonli qaror [11. B. 86], 1989-yil 13-sentabrdagi “Yunus Rajabiy uy-muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi 301-sonli qaror [12. B. 4], 1988-yil 14-yanvardagi “Yo‘ldosh Oxunboboyev uy-muzeyini tashkil etish haqida”gi 8-sonli buyruq [13. B. 257], 1971-yil 17-iyundagi Farg‘ona viloyatida “Usmon Yusupov memorial muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi 264-sonli qaror [14. B. 75], 1974-yil 24-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi FA O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyining filiali sifatida “Usmon Yusupov uy-muzeyii tashkil etish to‘g‘risida”gi 300-qaror [15. B. 102] ularning xotirasini abadiylashtirishga xizmat qildi.

Maqolada qo‘yilgan muammo O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan R-2296, R-2487, R-836, M-7, M-38 raqamli fond materiallari asosida yoritib berildi. Muammoni tadqiq etishda tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar va ularning muhokamasi

Ma’lum bir tarixni o‘zida yaqqol mujassam etishi bilan muzeylar har bir davlatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda 1200 dan ortiq turli mazmundagi muzeylar mavjud. Ular orasida davlat va jamoat arboblari, yozuvchi, shoir, rassom, olim va mashhur san’at arboblarining memorial va uy-muzeylari alohida o‘rin tutadi. Memorial va uy-muzeylari madaniy meros sifatida O‘zbekiston tarixini yoritishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining “Respublikadagi muzeylar ishining holati va faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga binoan Usmon Yusupov muzeyi, Yo‘ldosh Oxunboboyev memorial muzeyi, Muqimiy hujra-muzeyi, Sadriddin Ayniy uy-muzeyi, Hamid Olimjon yodgorlik muzeyi, O‘rol Tansiqboyev uy-muzeyi, Sergey Borodin uy-muzeyi O‘zbekiston SSR Xalqlar do‘stligi muzeyining filiali sifatida faoliyat olib bordi [16. B. 19].

Mazkur davrda asosan adabiyot va san’at sohasiga aloqador shaxslarning memorial va uy-muzeylari tashkil etilib, ulardan o‘z navbatida sovet mafkurasi va g‘oyalarini targ‘ib qilish vositasi sifatida ham foydalanildi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarixiy haqiqatni bor bo‘yicha xalqqa yetkazish, o‘zbek xalqi milliy qadriyatlarini tiklash, tarixiy tadqiqotlarni yangi davr mezonlari va ehtiyojlari asosida tashkil etish kabi vazifalarni ilgari surildi. Shuningdek, muzeylar faoliyatiga, ularning xalq tarixiy xotirasini shakllantirishdagi ahamiyatiga katta e’tibor qaratildi. Ushbu e’tibor bevosita muzeylar faoliyatini tashkil etish va takomillashtirishga yo‘naltirilgan farmon va qarorlar qabul qilinishi, ularning amaliyotga tatbiq etilishida o‘z ifodasini topdi.

Mustaqillik yillarida muzeylar faoliyatiga oid qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarni shartli ravishda ikki bosqichga bo‘lish maqsadga muvofiqdir.

1.1991-yildan 2016-yilgacha qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar.

2. 2017-yildan hozirgi kunga qadar qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar.

“Muzeylar to‘g‘risida”gi qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining muzey va uy-muzeylar to‘g‘risidagi qarorlarining qabul qilinishi, “O‘zbekmuzey” jamg‘armasining tashkil etilishi muzeylar faoliyatining yanada yaxshilanishiga xizmat qildi. Mustaqillik yillarida memorial va uy-muzeylar tashkil etish va rivojlantirishga ham katta e’tibor qaratilib, uning me’yoriy-huquqiy bazasini shakllantirishga doir ko‘plab hujjatlar yaratildi. Jumladan, 1992-yilning yanvar oyida O‘zbekiston Respub-

likasi Madaniyat ishlari vazirligi Sharof Rashidov tavalludining 75-yilligini o‘tkazish haqida 11-sonli qaror chiqardi. Jizzax viloyati hokimining yodgorlik muzeyi tashkil etish haqidagi 127-f sonli farmoyishiga ko‘ra, Jizzax shahrida Sharof Rashidovning uy-muzeyi tashkil topishi soha taraqqiyotida muhim rol o‘ynadi [17. B. 12].

O‘zbek milliy san’atini rivojlantirish, jahon xalqlari qo‘shiq va raqslarini targ‘ib etishdagi beqiyos xizmatlari inobatga olinib, Tamaraxonim uyida memorial muzey tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining 1992-yil 28-apreldagi 01-12/1984-sonli xati va Toshkent shahar hokimining 1992-yil 13-iyuldagi 237 R-sonli buyrug‘iga asosan Tamaraxonim uyida doimiy faoliyat yuritib kelayotgan kostyumlar ko‘rgazmasi 1994-yil 14-iyundan memorial muzey sifatida faoliyat yurita boshladi [18. B. 3; 19. B. 4; 20. B. 1].

1992-yil 23-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Usto Shirin Murodovning uy-muzeyini tashkil etish haqida” 297-sonli qaror qabul qilindi. Ushbu qarorning mazmun-mohiyati O‘zbekiston xalq me’mori, Respublika Fanlar akademiyasi faxriy a’zosi va milliy me’morchilik an’analari rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan Usto Shirin Murodov nomini abadiylashtirish hamda uning ijodiy merosini yosh avlodga targ‘ib qilishga qaratildi [21. B. 98]. Qaror ijrosi sifatida Toshkent shahri Habibiy ko‘chasi 35-uyda Usto Shirin Murodov uy-muzeyini tashkil etilish masalalari ko‘rildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 5-avgustdagi “O‘zbekiston tarixi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi 402-sonli qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining O‘zbekiston tarixi muzeyiga Davlat muzeyi maqomi berildi [22. B. 37]. Shuningdek, mustaqillikning dastlabki yillarida muzeylar taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan qarorlardan yana biri O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 23-dekabrdagi “Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinganligini alohida e’tirof etish joizdir [23. B. 370]. Mazkur huquqiy hujjatda “O‘zbekiston muzey boyliklari fondi to‘g‘risida”gi Nizom, “Muzeylarda saqlanayotgan tarixiy-madaniy boyliklarni ro‘yxatga olish, jamlash va saqlash tartibi to‘g‘risida”gi yo‘riqnoma ishlab chiqish va tasdiqlash ko‘zda tutilgan edi [22. B. 60].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 26-iyundagi “Respublika muzeylari faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 236-sonli qarorida O‘zbekiston Respublikasi davlat muzeylarida saqlanayotgan, chel elga olib chiqilmaydigan 2091 ta noyob eksponatlar ro‘yxati alohida qayd etilgan [24. B. 2].

Mamlakatimizda ommaviy jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirishga ko‘maklashish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 14-avgustdagi “Olimpiya shon-shuhrati muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi 284-sonli qarori qabul qilindi [22. B. 53].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 12-yanvardagi “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-1913-sonli farmoni va 1998-yil 5-dekabrdagi “Muzeylar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PQ-98-sonli qarorining qabul qilinishi muzeylar huquqiy maqomining mustahkamlanishiga xizmat qildi [25. B. 1; 26. B. 120]. Muzeylar faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ushbu farmonda yurtimizdagi muzeylarning xalq ma’naviy-axloqiy kamolotidagi o‘rnini oshirish, muzey fondlarida saqlanayotgan noyob hamda nodir eksponatlarni asrab-avaylash, o‘rganish, boyitib borish, dunyoga olib chiqish, targ‘ib qilish, malakali mutaxassislar bilan ta’minlash vazifa etib belgilandi.

Shuningdek, jahon muzeylari tajribalarini qo‘llash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida “O‘zbekturizm” hamda “O‘zbekiston havo yo‘llari” kabi boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda yetakchi muzey va qo‘riqxonalarni o‘z ichiga olgan maxsus xalqaro turistik yo‘nalishlar (turlar) tashkil etish, muzeyshunoslik madaniyatini oshirish, sohaga doir ilmiy ishlarni ko‘paytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Muzey xodimlarining kasbiy malakasini oshirish maqsadida uch oyda bir marta o‘zbek, ingliz va rus tillarida chop etiladigan ilmiy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy, rangli “Moziydan sado” jurnalining ta’sis etilishi muzeyshunoslik sohasi rivojiga salmoqli hissa bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 12-yanvardagi “Muzeylat faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risiga”gi PF-1913-sonli farmonining ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-martda “Muzeylar faoliyatini tubdan qo‘llab-quvvatlash masalasi to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi [27. B. 123]. Mazkur qarorda muzey sohasida kadrlarni malakasini oshirish, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ga asosan aniq rejalar ishlab chiqish, “O‘zbekmuzey” jamg‘armasini tashkil etish chora-tadbirlarini ko‘rish belgilandi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 23-martdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi masalalarini tartibga solish to‘g‘risida”gi 131-sonli qarori qabul qilingan [22. B. 79]. Ushbu qarorga binoan muzeylarda va boshqa muassasalarda saqlanayotgan madaniy boyliklarni xatlovdan o‘tkazish, madaniy meros ashyolari hamda obyekt-

larini davlat muhofaza ro‘yxatlari va reestrlarini qayta tasdiqlash kabi masalalarga e’tibor berilgan.

2001-yil 1-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to‘g‘risida”gi qarori [28. B. 1] hamda 2001-yil 1-mayda PF-2837-sonli farmoni e’lon qilindi. Shunga ko‘ra, xalqimizning ozodlik va mustaqillik uchun olib borgan ko‘p yillik mashaqqatli kurashini haqqoniy va to‘laqonli aks ettirish, mustabid tuzum davridagi ommaviy qatag‘onlarda qurbon bo‘lgan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirishga qaratilgan “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyini tashkil etish maqsadida 2002-yil 8-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 387-sonli qarori qabul qilingan [20. B. 113]. Mazkur qarorga ko‘ra, qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish, ularni yod etish bilan bog‘liq madaniy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirish va targ‘ib qilish, qatag‘on qurbonlarining hayoti va faoliyatini o‘rganish, ilmiy-ijodiy merosini to‘plash, nashrga tayyorlash va chop etish kabi masalalar maqsad qilib olingan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 29-iyulda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 269-sonli qarori [29] hamda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining 2002-yil 27-sentyabrdagi 5/4-sonli “Muzeylarning ish faoliyatini yaxshilash va moddiy-texnik bazalarini mustahkamlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi [30. B. 23].

Ushbu islohotlar natijasida bir qator xayrli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2008-yil 12-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida”gi 177-sonli qonuni qabul qilindi [22. B. 20]. Mazkur qonun 8 bob va 36 moddadan iborat bo‘lib, umumiy qoidalar, muzeylarni moliyalashtirish, muzeylarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi, muzeylarning turlari hamda toifalari, muzeylarni tashkil etish shartlarini o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi “Muzeylar to‘g‘risida”gi [22. B. 278] qonunini ro‘yobga chiqarish uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 12-apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida”gi 68-sonli qarori chiqdi. Nizomning 8-bandi va Madaniyat vazirligining 2019-yil 22-oktabrdagi (01-11-10-23 60-son) xatiga asosan Samarqand viloyati hokimi Qo‘shrabot tumanida “Ergash Jumanbulbul o‘g‘li yodgorlik muzeyi”ni Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi filiali sifatida tashkil qilish bo‘yicha buyruq chiqargan. Muzey Qo‘shrabot istirohat bog‘ining ichida 2020-yil 2-apreldan faoliyatini boshladi.

Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida madaniy merosni ommaviylashtirish va uning xalq tarixiy xotirasini shakllantirishdagi ahamiyatiga katta e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni [31. B. 2] hamda 2017-yil 31-maydagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori [32. B. 3] ijrosini ta’minlash maqsadida 2017-yil 11-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2017–2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 975-sonli qarori qabul qilindi [33]. Ushbu qarorga ko‘ra 2017–2027-yillarda O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan davlat muzeylarining faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dasturda davlat muzeylari faoliyatini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari rejasi tuzilishi, 2018-yilda faoliyati tugatiladigan, yangi va qayta tashkil etiladigan davlat muzeylari ro‘yxati, davlat muzeylari binolarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash kabi muhim masalalar belgilandi. Bu hujjatda memorial va uy-muzeylariga ham e’tibor qaratildi.

Jumladan, ushbu qarorning 2-ilovasiga ko‘ra, Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi filiali sifatida “Mutal Burhonov uy-muzeyi”, Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasining filiali sifatida Ergash Jumanbulbul o‘g‘li yodgorlik muzeyi, Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining filiali sifatida Erkin Vohidov uy-muzeylari tashkil etildi. Shuningdek, mazkur qarorning 2a-ilovasida Buxoro davlat badiiy-me’moriy muzey-qo‘riqxonasining Sadriddin Ayniy hujra-muzeyi va Buxoro davlat badiiy-me’moriy muzey-qo‘riqxonasining Abdurauf Fitrat hujra-muzeylari Buxoro Adabiyot tarixi muzeyi nomi ostida, Buxorodagi Fayzulla Xo‘jayev uy-muzeyi esa “Boy savdogar xonadoni” uy-muzeyi nomi bilan qayta tashkil etildi. Qolaversa, ushbu qarorning 2b-ilovasida 2018-yilda Jizzax viloyatidagi Hamroqul Nosirov yodgorlik muzeyi, Farg‘onadagi H.H.Niyoziy va U.Yusupov memorial muzeylari, Qo‘qondagi Qodirjon Haydarov uy-muzeylarning faoliyati tugatildi.

Xususan, Cho‘lpon yodgorligi bo‘limi binosi, Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li yodgorlik muzeylarining rekonstruksiya qilinishi va “Boy savdogar xonadoni” uy-muzeyi, Ibn Sino memorial muzeyi, Mutal Burhonov uy-muzeyi, Sadriddin Ayniy yodgorlik uy-muzeyi, Yangiyo‘ldagi Usmon Yusupov memorial muzeyi, Marg‘ilondagi Uvaysiy uy-muzeyi filiali, Qo‘qondagi Muqimiy hujra va Hamza

uy-muzeylari filiali, O‘.Tansiqboyev, Oybek, S.Borodin, Y.Rajabiy, A.Qahhor, S.Yesenin, Tamaraxonim hamda G‘.G‘ulom uy-muzeylarining mukammal ta’mirlanishi dasturning 3-ilovasida keltirilgan.

Birinchi Prezident Islom Karimov nomidagi Ilmiy-ma’rifiy yodgorlik majmuasining faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadida 2017-yil 16-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Islom Karimov nomidagi Ilmiy-ma’rifiy yodgorlik majmuasining ilmiy-tarixiy konsepsiyasi va ekspozitsiya loyihasini tayyorlash to‘g‘risida”gi PQ-2785-sonli qarori qabul qilingan [34].

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017-yil fevralda Qashqadaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida Qarshi shahrida Abdulla Oripov nomidagi maktab va uning ijodiga bag‘ishlangan muzey tashkil etish bo‘yicha topshiriqlar berdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-maydagi “Qarshi shahrida Abdulla Oripov nomidagi ona tili va adabiyoti fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 312-sonli qaroriga [35] muvofiq Qarshi shahrining O‘zbekiston shoh ko‘chasida A.Oripov nomidagi ijod maktabi ish boshladi va ushbu maktab binosining birinchi qavatida shoir ijodiga bag‘ishlangan muzey tashkil etildi.

Muzey xodimlarini rag‘batlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi “Davlat madaniyat muassasalari va davlat arxivlari xodimlari mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish va ularni moddiy rag‘batlantirishni kuchaytirish to‘g‘risida”gi qarori [36] ijrosini bajarish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-iyundagi “Davlat madaniyat muassasalari va davlat arxivlari xodimlari mehnatiga haq to‘lash va ularni moddiy rag‘batlantirishning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash haqida”gi 458-sonli qarori qabul qilingan. Ushbu qarorda davlat muzeylari, muzey-qo‘riqxonalari, uy-muzeylari va boshqa muzey turidagi tashkilotlardagi ma’muriy-boshqaruv xodimlarining mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha bazaviy lavozim maoshlari miqdorlarini belgilash bo‘yicha koeffitsiyentlar belgilab berildi [37].

Shuningdek, 2018-yil 26-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3920-sonli qarori qabul qilindi [38. B. 2]. Mazkur qarorda muzeylarning faoliyatini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni keng joriy etish, muzeydagi eksponatlarning raqamli ko‘rinishlarini yaratish orqali muzey eksponatlarini ko‘rish imkonini beruvchi infratuzilmani yaratish va aholini jalb qilish, muzeylar renovatsiya dasturini eksperiment tarzida amalga oshirishda I.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat san’at muzeyi va O‘zbekiston amaliy san’at muzeylarining qatorida Oybek uy-muzeyi tanlab olinganligi uy-muzeylarning keyingi rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-dekabrdagi “2020–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida muzeylar faoliyatini takomillashtirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 1019-sonli qarori qabul qilindi [39]. Mazkur qarorning mohiyati muzeylarni rivojlantirishning innovatsion va amaliy mexanizmini ishlab chiqish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, infratuzilmani yaxshilash, san’at va badiiy ijodni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, jahon madaniyati maydonida mamlakatning nufuzini mustahkamlash masalalariga qaratilgan. Shuningdek, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish uchun muzeylarning ma’muriy tuzilmasini takomillashtirish, muzey xodimlarini ishga qabul qilishda tanlov o‘tkazish tartibi, har chorakda muzey xodimlari faoliyatini baholash, tashrif buyuruvchilar oqimini ko‘paytirish uchun biznes-jarayonlar, xodimlarni boshqarish uchun modellarni nazarda tutuvchi dasturni ishlab chiqish masalasiga e’tibor qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-dekabrdagi “Abdulla Qodiriy tavalludining 125 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi farmoyishi [40] hamda 2019-yil 28-martdagi “Toshkent shahrida barpo etilgan madaniyat obyektlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 186-sonli qaroriga [41] binoan uy-muzey Toshkent shahar Shayxontohur tumani Termiz tor ko‘chasi, 35-, 36- va 37-uy manzillaridagi binolarda tashkil etildi.

O‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan buyuk shoir va adiblar – Ziyovuddinxon Kattaxoja o‘g‘li Haziniy to‘ra hamda Erkin Vohidovning boy ijodiy merosini o‘rganish, ularning nomlarini abadiylashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2019-yil 26-iyulda “Erkin Vohidov memorial muzeyi hamda Haziniy uy-muzeyi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 630-sonli qarori qabul qilindi [42].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-maydagi “Samarqand shahridagi ayrim moddiy madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 269-sonli qarori qabul qilindi [43]. Mazkur qarorga ko‘ra, Samarqand davlat muzey qo‘riqxonasining 2020-yil 26-avgustdagi “Hoji Abdulaziz Abdurasulov uy-muzeyini tashkil etish masalasi haqida”gi 199-sonli buyrug‘iga muvofiq, madaniy meros obyekti sifatida davlat ro‘yxatiga kiritilib, Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi tarkibi sifatida Samarqand shahri Hoji

Abdulaziz Abdurasulov ko‘chasi, 49-uy manzilida joylashgan tarixiy hovlida “Hoji Abdulaziz Abdurasulov uy-muzeyi” tashkil etildi [44. B. 3].

2020-yil 23-mayda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida muzey va teatrlarning marketing faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi [45]. Ushbu qarorning qabul qilinishi natijasida muzey va uy-muzeylarning global interaktiv xaritalarga (“MapsMe”, “GoogleMaps”, “YandexKarta”) joylashtirilishi, muzeyga aloqador maxsus elektron mobil ilova – “UzMuseums”ning yaratilishi hamda uning “AppStore”, “Google Play Market” kabi ilovalarga joylashtirilishi muzey va uy-muzeylarga tashrif buyuruvchilar oqimining ko‘payishida omil bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-mayda “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlarini ko‘rsatish darajasini oshirish maqsadida respublikaning barcha hududlarida muzey faoliyatini doimiy ravishda yo‘lga qo‘yish, 2020-yil sentyabr oyidan boshlab davlat muzeylarida har oyning birinchi yakshanbasi “ochiq eshiklar kuni” sifatida faoliyat olib borishi, aholiga muzey ashyolari, kolleksiyalarini bepul tomosha qilish imkoniyati berilishi, 2021-yil 1-yanvardan boshlab muzeylarda ilmiy darajaga ega bo‘lgan xodimlarning bazaviy lavozim maoshlarini oshirish kabi masalalarga e’tibor qaratildi [46].

2021-yil 20-yanvardagi “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun fuqarolarning qonunchilikda belgilangan tartibda madaniyat obyektlariga borish, milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey eksponatlari va kolleksiyalari bilan tanishishdagi huquq va majburiyatlarini belgilab berdi [47].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-aprelda qoraqalpoq xalqining atoqli shoiri Berdaq hamda jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va ijodini o‘rganish, keng targ‘ib qilish hamda nomini abadiylashtirish maqsadida “Berdaq nomidagi qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyi va Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi 206-sonli qarori qabul qilindi [48].

Shuningdek, o‘zining teran ijodi va badiiy asarlari bilan xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirish hamda yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni e’tirof etilib, o‘zining ijod maktabini yaratgan ijodkor, O‘zbekiston xalq shoiri To‘ra Sulaymonning uy-muzeyini Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani Turg‘un Ahmedov nomidagi mahalla fuqarolar yig‘ini Baxmal ko‘chasi 7-uyda tashkil etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston xalq shoiri To‘ra Sulaymon uy-muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi 321-sonli qarori qabul qilindi [49].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining muzey va uy-muzeylar sohasida “O‘zbekiston Respublikasida to‘siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi [50]. Mazkur qarorning 3-ilovasida 2024-yilda muzeylar va konsert-tomosha obyektlarida to‘siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha manzilli dastur tuzish belgilab olindi. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan uy-muzeylarning barchasi ushbu dasturga kiritilganligi mamlakatdagi mavjud uy-muzeylarning yanada ommalashishi va tomoshabinlarning kengroq jalb qilinishiga olib keladi.

2024-yil 19-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi [51]. Qarorda qatag‘on qurboni, jumladan, jadidchilik harakati namoyondalarining ibratli hayoti va faoliyatini o‘rganish, tarixiy xizmatlari haqidagi ma’lumotlarni, arxiv va muzeylar, kutubxonalar va turli fondlarda saqlanayotgan hujjatlarni to‘plash va tadqiq etish, xalqimiz orasida keng targ‘ib etish, bevosita daxldor bo‘lgan qo‘lyozma, kitob, surat va buyum shaklidagi tarixiy-madaniy ashyolarni davlat muzeylari fondlariga qabul qilish, “Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi” va uning hududlardagi bo‘limlari fondlarini muntazam boyitib borish va yana bir qator vazifalar belgilab berildi.

